ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK: 321.01 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2200

KORRUPSIYA VA UNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

R.I.Mirzayev, S.R.Ibodullayev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada jamiyat va yuqori texnologiyalar rivojlanishi bilan yildan yilga korrupsiyaning tobora ko‘proq yangi turlari paydo bo‘layotganligi, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tasniflar o‘ta turli-tumanligi va korrupsiyaviy xatti-harakatlar sifatida sodir qilinadigan qilmishlarni baholash uchun aniq mezonlarning yo‘qligi bilan ajralib turishi ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaning namoyon bo‘lish sohalari, subyektlarning maqomi, korrupsiyaning jamoatchilik uchun xavflilik darajasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, shakllari, poraxo‘rlik, favoritizm, “akaxon”lik qilish, lobbizm, proteksionizm, yuqorida sodir bo‘ladigan korrupsiya, pastda sodir bo‘ladigan korrupsiya, noqonuniy xususiylashtirish, siyosiy birlashmalarni qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish, ta’magirlik.

Коррупция и ее проявления

Аннотация. В статье рассматривается тот факт, что с развитием общества и высоких технологий с каждым годом появляются все новые и новые виды коррупции, классификации в научной литературе весьма разнообразны и отсутствуют четкие критерии оценки совершаемых деяний, как коррупционных практик. Проанализированы сферы коррупции, статус субъектов, уровень опасности коррупции для общественности.

Ключевые слова: коррупция, формы коррупции, взяточничество, фаворитизм, кумовство, лоббизм, протекционизм, коррупция сверху, коррупция снизу, незаконная приватизация, вымогательство.

Corruption and its manifestations

Abstract. The article discusses the fact that with the development of society and high technologies, more and more new types of corruption appear every year, the classifications in the scientific literature are very diverse and there are no clear criteria for evaluating the acts committed as corrupt practices. The spheres of corruption, the status of subjects, the level of danger of corruption for the public are analyzed.

Key words: corruption, its forms, bribery, favoritism, nepotism, lobbyism, protectionism, corruption from above, corruption from below, illegal privatization, extortion.

Korrupsiya nima? Korrupsiya bu shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqyeidan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi.

Korrupsiya atamasi lotincha “orruptio” so‘zidan olingan bo‘lib, pora berib sotib olish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (ma’naviy) buzilish degan ma’nolarni anglatadi. Odatda korrupsiya jamiyatda oddiy xalq vakillarining yuqori amaldorlarga yoxud davlat amaldorlarining o‘zaro bir-birlariga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadi.

Korrupsiya jinoyatini bugungi kunda nafaqat bizning davlatimizda, balki dunyoning boshqa ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida ham mavjud bo‘lgan an’anaviy va juda keng tarqalgan jinoyat turi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Korrupsiyaning namoyon bo‘lishining turli-tumanligi to‘g’risida tasavvur hosil bo‘lishi va biz tomonimizdan tadqiq qilinayotgan voqye’likning zamonaviy ilmiy munozaralar va amaliyot uchun

dolzarb bo‘lgan jihatlarini aniqlash uni turli mezonlarbo‘yicha tasniflash asosida sodir bo‘ladi. Korrupsiya turlicha shakllarda namoyon bo‘ladi. U poraxo‘rlik, favoritizm, “akaxon”lik qilish, lobbizm, proteksionizm, jamoatchilik mablag’lari va resurslarini noqonuniy qayta taqsimlash yoki ularni shaxsiy manfaatlar uchun o‘zlashtirish, noqonuniy xususiylashtirish, siyosiy birlashmalarni qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish, ta’magirlik, davlat buyurtmalarini auksionsiz taqdim qilish, imtiyozli kreditlarni soxta asoslar bo‘yicha yoki belgilangan qoidalar va proseduralarga zid ravishda taqdim qilish, jamoatchilik boyliklarini noqonuniy qo‘lga kiritish uchun shaxsiy aloqalarni qo‘llash va hokazolar shaklida ifodalangan bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda korrupsiyaning ko‘plab tasniflari keltirilgan, biroq mazkur jinoyat turlarining to‘liq ro‘yxati hali ishlab chiqilmagan.

V.Kleverenning yozishicha, iqtisodiy nuqtai nazardan korrupsiyaviy faoliyatni biznesga tenglashtirish mumkin. Chunki shaxsiy daromadini “maksimal” darajada ko‘tarish payida bo‘lgan korrupsioner g’ayrishuuriy tarzda biznes bilan shug’ullanayapman deb o‘ylaydi [1]. Korrupsiyani bunday tushunish korrupsiyaviy hodisalarga faqat egallab turgan lavozimi tufayli pora olish yo‘li bilan foyda ko‘rishni emas, balki xizmat mavqyeidan foydalanib o‘g’irlik qilish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida noqonuniy ishtirok etish, xizmat vakolatlarini suiste’mol qilishlar va kontrabanda bilan shug’ullanishni ham kiritishni nazarda tutadi.

Endi davlat boshqaruv tizimida korrupsiyaning turlarini ko‘rib chiqamiz. Turlarga ajratish ularni chuqurroq bilib olishga, ularni bir-biridan farqlovchi ba’zi bir xususiyatli, o‘ziga xos alomatlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

Korrupsiyani quyidagi turlarga ajratish mumkin: korrupsiyaviy harakatlarning tashabbuskori bo‘yicha pastki (kundalik, mayda) korrupsiya va yuqori (elitar, yirik) korrupsiyaga ajratish mumkin. Bu buzg’unchi xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishini anglatuvchi “Pastda sodir bo‘ladigan korrupsiya” tushunchasi mavjud.

Qoidaga ko‘ra, u yashirin iqtisodiyot sektoriga hamrohlik qiladi. Korrupsiyaning mazkur turi odatda mehnatga qobiliyatli aholining uchdan birini qamrab oladi [2]. “Pastda sodir bo‘ladigan korrupsiya”ning xususiyatini tahlil qilish bilan amerikalik olim V.Shlyapentox shunday xulosaga kelganki, sobiq Ittifoq hududi o‘rnida vujudga kelgan mamlakatlar, O‘zbekiston Respublikasini ham o‘z ichiga olgan holda, korrupsiyalashgan fuqarolik jamiyati bilan ajralib turadi. U o‘zining tadqiqotida saylov kompaniyalarining nodavlat, notijorat tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilganligiga misollar keltirgan, qonunchilikning qo‘pol buzilish holatlarini keltirgan, ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida mavjud bo‘ladigan “akaxon” fenomenining bo‘lishi omillarini ko‘rsatib bergan [3].

“Yuqorida sodir bo‘ladigan korrupsiya” siyosiy hokimiyatga ega bo‘lgan davlatda amalga oshiriladi. U siyosiy kurash sharoitlarida mamlakatda qabul qilinadigan qarorlarga ochiq demokratik jarayonlar vositasida ta’sir ko‘rsatishning real imkoniyatlari yo‘qligi bilan shartlanadi. Shu sababli vaziyatdan chiqishning ko‘proq afzal va ishonchli yo‘li deputatlar, fraksiyalar va partiyalarni sotib olish bo‘lib qoladi. Korrupsiyani, shuningdek, byurokratik va siyosiy, kelishilgan va majburiy, markazlashgan va markazlashganmagan korrupsiyaga ajratish mumkin [4].

Faoliyatning yo‘nalishlari bo‘yicha korrupsiya davlat hokimiyati organlari va korxonalarda bo‘lishi mumkin [5]. Hokimiyat organlarining turlari bo‘yicha u ijro qiluvchi, qonunchilik va sudlov organlaridagi korrupsiyaga hamda mahalliy tuzilmalar darajasidagi korrupsiyaga ajratiladi [6].

Korrupsiyalangan subyektlarning milliy tarkibi bo‘yicha jahon hamjamiyatidagi turli munosabatlarning monopollashuviga olib keluvchi va davlatning ichidagi korrupsiya ajratadigan, aniq davlat yoki milliy hamjamiyatning yurisdiksiyalari doirasida o‘rinli bo‘luvchi transmilliy (xalqaro) korrupsiyani ko‘rishimiz mumkin [7].

V.M.Baranov korrupsiyaning quyidagi turlarini ajratgan:

- “yorug’ korrupsiya” - xizmat vazifalarini bajarmaslik bilan bog’lanmagan korrupsiyaviy harakatlar, ko‘rsatilgan xizmat uchun minnatdorchilik sifatida aks etadi;

- “kulrang korrupsiya”, lavozim majburiyatlarining buzilishi bilan bog’liq korrupsiyaviy harakatlar;

- “qora korrupsiya” - mansab jinoyatlarini sodir qilish yoki uyushgan jinoiy faoliyatda ishtirok etishga hamrohlik qiladigan korrupsiya [8].

T.V.Beken korrupsion faoliyat ishtirokchilarining faollik darajasi bo‘yicha korrupsiyani “aktiv” (sotib olish, pora berish) va “passiv” (majburiyatdan ozod qilish) korrupsiyaga ajratadi [9].

Jamoatchilik hayot faoliyatining sferalari bo‘yicha olimlar korrupsiyaning quyidagi turlarini ajratadilar:

- amaldor tomonidan fuqarolardan pul mablag’lari yoki moddiy boyliklarning ta’ma qilinishida namoyon bo‘luvchi maishiy korrupsiya;

- tadbirkorlar tomonidan ularning faoliyatiga bog’liq masalalarni hal qilish uchun davlat yoki munisipal xizmatchilarga pul mablag’larining (pora) berilishini nazarda tutgan ish yuzasidagi (delovaya) korrupsiya;

- ma’muriy korrupsiya, bunda amaldor tadbirkorlardan pul mablag’lari yoki boshqa moddiy boyliklarni ta’ma qiladi;

- “davlatni bosib olish”, masalalarni o‘zlarining rivojlangan kampaniyalari foydasiga hal qilish uchun tadbirkorlar tomonidan hokimiyat qarorlarining sotib olinishini ko‘zda tutadi;

- “biznesni bosib olish”, bunda davlat xizmatchilari va munisipal xizmatchilar g’arazli maqsadlar uchun biznes ustidan nazorat o‘rnatadi [10].

Shuni qayd qilamizki, korrupsiya faqatgina latent bo‘lib qolmasdan, balki kelishuv xarakterini qabul qilishi mumkin. Aksariyat hollarda korrupsiyaviy xatti-harakatlar yuzasidan hyech kim shikoyat qilmaydi, chunki huquqbuzarlikning sodir bo‘lish momentida har ikkala tomon ham foyda ko‘radi. Pora ta’ma qilish yuzasidan ham kamdan-kam hollarda shikoyat qilinadi, chunki jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish institutiga bo‘lgan ishonchning past darajasi kuzatiladi, bu obyektiv va subyektiv xarakterga ega bo‘ladi [11].

Davlat doirasida korrupsiyani tadqiq qilish bilan bog’liq zamonaviy ilmiy ishlanmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, korrupsiya sharoitlarida guruhiy xulq-atvor strategiyalari bo‘yicha moslashish strategiyasi, qochish strategiyasi, «davlatni bosib olish» strategiyasi (agar biznes tizimli yashirin lobbizm bilan shug’ullansa) va «biznesni bosib olish» strategiyasi (agar davlat hokimiyati organlarining hokimiyat o‘zining vakillari orqali jamoa bo‘lib yoki individual tarzda ma’muriy foydani qo‘lga kiritish uchun biznes ustidan yashirin nazorat o‘rnatadigan strategiyalar va taktikalar majmuasi kuzatilsa) ajratiladi [12]. Oxirgisi ma’muriy va siyosiy korrupsiyaning sintezlanishini anglatuvchi institusional korrupsiya deb ataladi. Bunday vaziyatda korrupsiyaning ko‘lami kengayadi, chuqur va keng tuzilmaga ega bo‘ladi, shuning uchun davlatda qarorlar jamiyat yoki tijorat tuzilmalari manfaatlarini ko‘zlab emas, balki korrupsiyalashgan byurokratik apparat manfaatlarini ko‘zlab qabul qilinadi [13].

Korrupsiyaning madaniyat turlari bo‘yicha yana bir qiziqarli tasniflanishini ko‘rib chiqamiz, u korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning klassiklaridan biri A.Xaydenxaymer tomonidan ishlab chiqilgan. U o‘zining ishlarida to‘rtta madaniy turini ko‘rib chiqqan:

1. An’anaviy oila (qarindoshchilik) munosabatlariga ega bo‘lgan tizim. U yopiq arxaik umumlashmalarga (obshina) xos va institusional jihatdan rivojlanmagan davlatlarda, shuningdek, davlatlarning ichidagi an’anaviylik hamjamiyatlarda keng tarqalgan;

2. «Patron-mijoz» an’anaviy munosabatlariga ega bo‘lgan tizim. U, xususan, Gresiya va Sisiliyadagi jamoalarda kuzatiladi. U yerda amalda oiladan tashqarida himoya va “xomiy”ni qidirish zarur bo‘ladi;

3. «Yetakchi-ergashuvchi» zamonaviy munosabatlarga ega bo‘lgan tizim. A.Xaydenxaymerning fikriga ko‘ra, mazkur tizim XX asrning birinchi yarmida yirik Amerika shaharlarida «siyosiy mashinalar»ning faoliyatiga xos bo‘lgan va bugungi kunda unchalik katta bo‘lmagan shaharlarda qisman saqlanib qolgan. Mazkur umumlashmalar yuqorida tavsiflangan toifalardan o‘zining differensiallangan iqtisodiyotga ega urbanizasiyalashgan markazlar sifatida ochiqligi bilan ajralib turadi.

Ko‘rib chiqilayotgan tizimda an’anaviy aloqalar foydani baholash iqtisodiy yoki ijtimoiy almashinish asosidagi hisob-kitoblar bilan almashtirilgan;

4. Fuqarolik madaniyati munosabatlariga ega bo‘lgan tizim. U rivojlangan fuqarolik jamiyati sharoitlarida AQSh va G’arbiy Yevropaning o‘rtacha shaharlari va shahar atroflariga xos. Unda fuqarolar kuchli himoyachini (patronni) qidirishga bo‘lgan zaruratni his qilmaydi, chunki barcha ijtimoiy munosabatlar aniq va tushunarli rasmiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Shu sababli keng ko‘lamli korrupsion hodisalar, xususan, poralar amalda bo‘lmaydi. Iqtisodiy almashinish holatlari kam, biroq ular ham hurmat (respektabel) shakllarni qabul qiladi. Masalan, saylov jamg’armalariga badallar, yuristlarga gonorarlar, minnatdorchilik tushliklari, konsultantlar bilan shartnomalar va hokazolar [14].

Korrupsiyani “geografik” tasniflash ham qiziqarli. U olimlarning dunyoning turli mintaqalarida korrupsiyaviy amaliyotlarning xususiyatini kuzatishga asoslangan. Xususan, “G’arbiy Yevropa modeli”ga korrupsiyaning past darajasi xos, chunki jamiyat uni qonunning buzilishiga asoslangan yaqqol anomaliya sifatida qabul qiladi. Mazkur mintaqada korrupsiyaviy kelishuvlar juda kam uchraydi, barqaror korrupsiyaviy aloqalar esa chuqur yashiriladi. “Osiyo modeli” sharoitlarida korrupsiya odatdagi va jamoatchilik tomonidan yo‘l qo‘yiladigan, davlatning faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan, tarixiy an’analarga asoslangan faoliyat bo‘lib hisoblanadi. Misol tariqasida Xitoydagi “guanksi” yoki O‘rta Osiyodagi “baxshish” amaliyotini keltirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, gap do‘stona aloqalar bilan almashinishga asoslangan uzoq muddatli siyosat-ish munosabatlari xususida boradi. “Lotin Amerikasi modeli”da davlat amalda korrupsiyaga qarshi harakatlarni amalga oshirmaydi, chunki, iqtisodiyotning yashirin sektori yirik sarmoyaga va davlatning kuchiga yaqin qudratga erishgan. Shu sababli hokimiyat organlari doimo mafiyaga qarshi turishga majbur bo‘ladilar, mamlakatlarning iqtisodiy farovonligi esa boshqa murakkab muammolar fonida ikkinchi darajali va amalga oshirish qiyin bo‘lgan vazifaga aylanadi.

Shu bilan birgalikda barqaror siyosiy beqarorlik korrupsiyaga qarshi harakatlar shiori ostida diktatura o‘rnatilishi imkoniyatlarini anchagina kengaytiradi, shuning uchun ushbu mintaqa “Afrika modeli”ga o‘tishga tobora yaqinlashib bormoqda. “Afrika modeli” shu bilan ajralib turadiki, bu mintaqada hokimiyat asosiy iqtisodiy klanlar tomonidan sotib olinadi yoki ular bilan birlashib ketadi. Shu bilan birga, Afrikada barcha demokratik modellar va tartib-qoidalar kamuflyajlangan, iqtisodiyot esa ijtimoiy qo‘zg’alishlarni istisno qilish hamda uzoq muddatli istiqbolda tor doiradagi oligarxlar guruhi manfaatlarini ta’minlash uchun jamiyatning faqat asosiy ehtiyojlarini qondiradigan ibtidoiy darajada qolmoqda [15].

Shunday qilib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda korrupsiyaviy faoliyatning turlarini har tomonlama tahlil qilish amalga oshirilgan, ko‘plab turli-tuman tasniflar ishlab chiqilgan, biroq mavjud tasniflarning birortasi ham to‘liq va mazkur voqye’likka qarshi maqsadli yo‘naltirilgan tarzda, tizimli va samarali ravishda kurashish uchun yetarlicha asos bo‘ladi deb, hisoblab bo‘lmaydi. Olimlar korrupsiyani quyidagi asoslar bo‘yicha tasniflashni keltiradilar: korrupsiyaviy xatti-harakatlarning tashabbuskori bo‘yicha; faoliyatning sohalari bo‘yicha; korrupsiyaviy hodisalarga aloqador hokimiyat organlari bo‘yicha, korrupsiyalashgan subyektlarning milliy tarkibi bo‘yicha, subyektlarning faollik darajasi bo‘yicha, jamiyat hayot faoliyatining sohalari, korrupsiya sharoitlarida guruh xulq-atvor strategiyalari bo‘yicha, madaniy turlar bo‘yicha, «geografik» mintaqalar bo‘yicha va hokazolar.

Jamiyat va yuqori texnologiyalar rivojlanishi bilan yildan yilga korrupsiyaning tobora ko‘proq yangi turlari paydo bo‘lmoqda. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tasniflar o‘ta turli-tumanligi va korrupsiyaviy xatti-harakatlar sifatida sodir qilinadigan qilmishlarni baholash uchun aniq mezonlarning yo‘qligi bilan ajralib turadi. Bu tizimli va natijaviy faoliyat sifatida korrupsiyaga qarshi kurashishni murakkablashtiradi. Bizningcha, korrupsiyani qat’iy belgilangan mezonlar asosida tasniflash ko‘proq maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Ularga korrupsiyaning namoyon bo‘lish sohalari, subyektlarning maqomi, korrupsiyaning jamoatchilik uchun xavflilik darajasini kiritishni ham taklif qilamiz.

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz darkor. Buning uchun esa shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllangan bo‘lmog’i maqsadga muvofiqdir.

Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar va uning shakllari ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog’lom yashashida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Максимов С.В. Основы борбы с коррупцией (системы общегосударственной этики поведения). – М.: Спарк, 2018. – С. 12-13.
2. Конышев В.Н., Сергунин А.А. Система индикаторов вузовской коррупции (гипотеза) // Высшее образование в России. – 2011. – № 10. – С. 152-153.
3. Vladimir Shlapentokh. Russia: Privatization and Illegagalization of Social and Political Life // The Washington Quarterly. – Winter 1996. – 75-76 pp.
4. Ожиганов Э.Н. Понятие и структура коррупции. Сравнителный уровен коррупсии в Российской Федерасии // Сосиология власти. – 1999. - № 1. – С. 60-62.
5. Костенников М.В., Куракин А.В. Предупреждение и пресечение коррупции в системе государственной службы. – М.: Наука, 2004. – С. 23.
6. Мишин Г.К. Коррупция: понятие, сущност, меры ограничения. – М.: Наука, 1991. – С. 19.
7. Селихов Н.В. Коррупция в государственном механизме современной России (теоретические аспекты). Юридик фанлари номзоди диссертацияси. – Екатеринбург, 2001. – С.9.
8. Баранов В.М. Теневое право: Монография. – Н. Новгород: Право, 2018. – С 98.
9. Бекен Т.В. Европейский взгляд на Закон Республики Узбекистан «Об основах антикоррупционной политики» // Государство и право. – 2019. – № 6. – С. 118.
10. Баранов В.М. Теневое право: Монография. – Н. Новгород: Право, 2018. – С. 98.
11. Дахин А.В. Коррупция: элементы социологической модели // Коррупция в органах государственной власти: природа, меры противодействия, международное сотрудничество. – Нижний Новгород, 2001. – С. 79.
12. Антикоррупционная политика: учеб. пособие для студентов вузов по спесиалностям управление, экономика, право, социология, политология. Фонд ИНДЕМ / под ред. Г.А. Сатарова. – М.: РА «СПАС», 2017. – С. 81.
13. Спрос и предложение государственных властных услуг: институционалный анализ / И.В. Аверкиев, Д.Г. Галиский, Г.В. Калягин и др. – М.: Наука, 2015. – С. 66.
14. Антикоррупционная политика: учеб. пособие для студентов вузов по специалностям управление, экономика, право, социология, политология. Фонд ИНДЕМ / под ред. Г.А. Сатарова. – М.: РА «СПАС», 2017. – С. 77-78.
15. Бондаренко С.В. Коррумпированные общества. – Ростов на-Дону: ОАО «Ростиздат», 2019. – С. 40.